

BADIY MATNDA DIALEKTAL FRAZEOLOGIZMLARNING QO'LLANILISHI

*Yusupov Sardor Shodi o'g'li,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti assistenti
ysardor40@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiy matnda frazeologik birliklarning qo'llanishi masalasiga qisqacha to'xtalib o'tildi. Badiy matn tarkibida so'zlashuv unsurlarining so'zlashuv nutqi tarkibida esa, dialektal frazeologizmlarning ishlatalishi taniqli yozuvchimiz To'g'ay Murodning "Oydinda yurgan odamlar" qissasidan olingan misollar orqali ko'rsatib berildi.

Kalit so'zlar. Badiy matn, so'zlashuv nutqi, iboralar, frazeologik birliklar, Tog'ay Murod, "Oydinda yurgan odamlar".

EDEBI METINLERDE DIYALEKTIK DEYIMLERIN KULLANIMI

*Yusupov Sardor Shodi oğlu,
asistanı at the Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü*

Özet. Bu makalede, edebi metinlerde deyimsel birimlerin kullanımı konusu kısaca ele alınmıştır. Edebi metinlerde konuşma unsurlarının ve sözlü anlatımında diyalektik deyimlerin kullanımına, ünlü yazar Tog'ay Murod'un "Oydında yurgan odamlar" ("Ayışığında Yürüyen İnsanlar") adlı eserinden alınan örneklerle değinilmiştir.

Anahtar kelimeler. Edebi metin, konuşma dili, deyimler, deyimsel birimler, Tog'ay Murod, "Oydinda yurgan odamlar".

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИАЛЕКТНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ

*Юсупов Сардор Шоди углы,
ассистент Узбекско-Финского педагогического института*

Аннотация. В данной статье кратко рассматривается вопрос использования фразеологических единиц в художественном тексте. Использование разговорных элементов в литературе и применение диалектных фразеологизмов в устной речи иллюстрируется примерами из новеллы известного писателя Тугая Мурода "Ойдинда юрган одамлар" ("Люди, гуляющие при лунном свете").

Ключевые слова. Художественный текст, разговорная речь, идиомы, фразеологические единицы, Тугай Мурод, "Ойдинда юрган одамлар".

THE USE OF DIALECTICAL PHRASEOLOGICAL UNITS IN LITERARY TEXTS

*Yusupov Sardor Shodi oglı,
assistant at the Uzbek-Finnish pedagogical institute*

Abstract. This article briefly discusses the use of phraseological units in literary texts. The use of colloquial elements within literary texts and the application of dialectical phraseological units in spoken language are illustrated with examples taken from the well-known writer Tog'ay Murod's novella "Oydinda yurgan odamlar" ("People Walking in the Moonlight").

Keywords. Literary text, spoken language, idioms, phraseological units, Tog'ay Murod, "Oydinda yurgan odamlar".

Iboralarning og‘zaki nutq shaklida qo‘llanish holatlari juda ko‘p uchraydi. Chunki har bir so‘zlovchi o‘z nutqini ta’sirchan, jozibali yetkazish uchun bunday birliklarni nutqqa olib kiradi.

Frazeologik birliklar til egasi bo‘lgan xalqning ma’naviy madaniyati, urf-odati, kasbi, yashash sharoiti, intilishi, voqelikka munosabati bilan uzviy bog‘liqidir. Frazeologik birliklar obrazlilik va ekspressivlikni vujudga keltiruvchi muhim vositalar bo‘lib1, ular nutqning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. [1, 3 b.] Bilamizki, so‘zlashuv uslubi sheva birliklarini qabul qilishi bilan boshqa uslublardan farqli hisoblanadi. Adabiy tilimizda mavjud bo‘lgan frazeologik birliklarning shevalardagi muqobili, adabiy tilga kiritilmagan, aynan sheva uchun xos bo‘lgan frazeologik birliklarni so‘zlashuv nutqidan bilib olishimiz mumkin. Badiiy nutq haqida gap ketganda uning alohida xususiyati barcha nutq uslublarini o‘zida mujassam etishi ko‘z oldimizga keladi. Jumladan, badiiy nutq tarkibida so‘zlashuv nutqi elementlarining qo‘llanishi badiiy asar qahramonlarining o‘z tilida, ya’ni shevasida gapirish holatlari badiiy asarning mazmunini to‘laroq ochib berishga yordam beradi.

Adabiyotimizda badiiy asarga xalqona so‘zlashuv nutqini olib kirgan ijodlarimizdan biri bu, shubhasiz, Tog‘ay Muroddir. Yozuvchi asarlarida xalq hayotini to‘laligicha yoritish maqsadida asar qahramonlari nutqida shevaga xos bo‘lgan birliklardan foydalanadi. “Oydinda yurgan odamlar” qissasida keltirilgan shevaga oid iboralarni matn tarkibida kelib, qanday ma’no va mazmun ifodalashini ko‘rib o‘tamiz.

Qishloqda bir bo‘zbola bo‘ladi. Bo‘zbola yelkador, pishiq qomatlik bo‘ladi. Kulcha yuzlarida chuqur-chuqur kuldirgichlari bo‘ladi. Qo‘y ko‘zlik, siyrak qoshlik bo‘ladi. Bo‘zbola **qomatini g’oz tutadi**. Joyida tik turadi. Qo’llarini ko‘kragiga qovushtiradi yo beliga tiraydi. Bir nuqtaga tikiladi. Qayerga tikiladi, nimaga tikiladi? Bilmaymiz, biz bilmaymiz. Inchunin, o‘zi-da bilmaydi. Bo‘zbolani ilk bor ko‘ramiz. [3, 81 b.]

Ushbu parchada keltirilgan *qomatini g’oz tutmoq* iborasi ko‘kragini kerib turmoq iborasi bilan sinonim bo‘ladi. Ma’nosiga e’tibor qilinganda, g’oz parrandasining ko‘rinishiga o‘xshatish ma’nosи ko‘rinib turadi. Sovchilar tag’in keldi. Oradan ikki kun o’tdi. Og’ayni-jamoalar **birovi u dedi, birovi bu dedi**. Birovi arazlab ketdi. Bari o‘z gapini ma’qullatish payida bo‘ldi. Aka bo‘lmish bariga birday bo‘lib o’tira berdi. Bo‘lar gap qizda qoldi. Yangi bo‘lmish oshxonaga yo’l oldi. [3, 82 b.]

Birovi u dedi, birovi bu dedi. Bu ibora o‘zbek xalqi an’analari bilan bog‘liq bo‘lib, oilaviy yig‘inlar, to‘y-ma’rakalarda bir masala yuzasidan bahs-munozarada ishtirokchilarning ketma-ket fikr bildirishini ifodalaydi. Bundan tashqari, aniq bir to‘xtamga kela olmaslik holatini ham ko‘rsatadi.

Qirqiga chidagan kuyov, qirq biriga-da chidar! – Bir tong otsa otibdi-da, hali yanagi tonglar bor! Xayrulla domla oxirgi bor – uchinchi bor vakil so’radi. Shunda-da javob bo‘lmadi. **Uchdan keyin puch bo‘ldi**. [3, 85 b.]

Ushbu parchada ikkita ibora ishlatilgan. Ulardan birinchisi *Qirqiga chidagan kuyov, qirq biriga-da chidar* iborasi, asosan, sabr qilish ma’nosini yuzaga chiqaradi. Biror ishni oxiriga yetkazib qo‘yish yoki o‘sha ishning bajarilishini erta boshlab qo‘ymasdan sabr qilib turish, ya’ni “podadan oldin chang chiqarmaslik” va ba’zida shoshmaslik kerakligi haqidagi mazmunni ochib berishda ishlatiladi.

Uchdan keyin puch bo‘lmoq. Sharq xalqlarida 3 marta imkoniyat berish an’anasi mavjud bo‘lib, rivoyatlar-u afsonalar, ibratlari voqealar va bugungi kundagi hayotimizda ham uchrab turadi. Masalan, “yigit kishiga 3 marta omad beriladi”, “3 ta tilakni amalga oshirish” va boshqa holatlarni aytish mumkin.

Ko‘prikda soyalar **qora berdi**. Ikkita bo‘zbola ko‘prikda tayog’ tutib turdi. Tayoqni olmasdan ko‘prikdan o’tib bo‘lmadi. Bo‘zbolalar kelin tarafдан talab qildi: – Kuyov... beringlar! Kelin taraf **sukut saqladi**. Bo‘zbolalar o‘z so‘zida turdi: – Unda, yo’l yo’q. Ot yetaklovchi qo‘ynidan kelin tigmish ro’mollardan oldi. Bo‘zbolalarga birovdan berdi. Tayoq olindi, kelin yo’li ochildi. [3, 94 b.]

Bu yerda qo'llanilgan *qora bermoq* iborasi "ko'rinoq" so'ziga sinonim bo'la oladi. Ko'priq ustida ikkita bo'zbolaning soyasi ko'ringan holatni olib berishda qo'llanilgan.

Ota-onasi tag'in chaqirtirdi. – **Uyimizdan ilon chiqqanmi?** – piching qildi otasi. – Yo'q, nima edi? – talmovsiradi bolasi. – Bo'lmasa nimaga qorangni ko'rsatmaysan? – Bizning gapimiz nima bo'ldi? – Yelib-yuguryapmiz, berib qolar... – deya ming'illadi Qoplon. [3, 101 b.]

Uyidan ilon chiqmoq. Odatda, biror uydan ilon chiqadigan bo'lsa, u ilonni yo'q qilgan holda ham u yerdan yana boshqa ilon chiqib qolishi mumkin degan fikr paydo bo'lib, doimiy ehtiyotkor bo'lishga undaydi. Ushbu parchada qo'llangan ibora ko'p hollarda piching va kinoya shaklidagi gaplarda ishlataladi.

Afsuslar bo'lsinkim, Barchin xola onamizni ushlab qoldi. Tirsagidan yetaklab, xolisroqqa olib borib o'tirg'izdi. – Balchiqqa tosh otsang, betingga sachraydi! Qo'ying, do'stim, shunga teng bo'lman! – dedi. Onamiz **rangida qon qolmadi**. Olisdan chopib kelmishday hansiradi. Qo'llari sovqotmishday qaltiradi. Tizzalariga peshonasini qo'yib, ho'ngrab yig'lab yubordi... [3, 128 b.]

Rangida qon qolmadi. Bu ibora insonning ruhiy holatini ifodalaydi. Qo'rquv, tushkunlik, xavotir va kasallik natijasida insonning yuzi oqarishi holati bilan izohlanadi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asarlarda qo'llaniladigan frazeologizmlar asar mazmunini yanada boyitishi bilan birga o'zbek milliy madaniyatini, qadriyatlari bilan bog'liq holatlarni yuzaga chiqarishda asosiy vositalardan biri bo'lib qoladi. Dialektal frazeologizmlar adabiy tilimizning asosi bo'lgan dialekt va shevalarda turg'un birikma ko'rinishida saqlanib kelmoqda. Bunday birikmalarni yozuvchilarimiz asarlarida uchratishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbek xalq dostonlarining chastotali izohli frazeologik lug'ati. B.Yo'ldoshev, D.O'rino boyeva. Samarqand, 2013. – 102 b.
2. Назар Ражабов. Ўзбек шевашунослиги. Дарслик, Тошкент: Ўқитувчи, 1996, 304 б.
3. Ойдинда юрган одамлар. Қиссалар. Ҳикоялар. Тошкент. Адабиёт ва санъат нашириёти, 1985, 160 б.
4. Normo'minov, S. T. (2023). Til tizimi va so 'z turkumlari paradigmasida yadro-periferiya munosabatlari haqida. *2016 no. 6 (100/1), 100(66)*, 5-10.
5. Нормуминов, Ш. Т. (2020). Взаимосвязь и развитие парадигм частей речи. *Вестник Таджикского национального университета. Серия филологических наук*, (6), 142-147.
6. Normo'minov, S. T. UDK: 494.3 Til tizimi va so 'z turkumlari paradigmasida yadro-periferiya munosabatlari haqida. *Научный вестник scientific reports*, 112.
7. Anorqulova, O. N. K. (2021). Interpretation of the concept of father in some oral and written sources. *Current research journal of philological sciences*, 2(07), 20-24.
8. Yoqubov, I. (2025). Uzbek Spelling Rules: History, Principles, and Modern Applications. *Pedagogika, psixologiya va ijtimoiy tadqiqotlar jurnali*, 4(2), 20-26.
9. Yoqubov, I. (2025). O'zbek va turk tillaridagi gap bo'laklarining qiyosiy tavsifi. *fars international journal of education, social science & humanities.*, 13(2), 9-14.
10. Yoqubov, I. (2025). O'zbek va turk tillaridagi gap bo'laklarining qiyosiy tavsifi. *fars International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, 13(2), 9-14.
11. Alikulova, D. O., & Pardayev, S. S. (2024). Increasing students'vocabulary by using didactic games and interactive methods in teaching synonyms. *Journal of Science, Research and Teaching*, 3(12), 15-18.
12. Shokir o'g'li, P. S. (2024). Omonim so 'zlarni o 'qitishda interfaol metodlardan foydalanish. *Miasto Przyszlosci*, 54, 1744-1746.
13. Erbutayeva, S. U. (2021). About some auxiliary words in Uzbek language. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 1294-1300.
14. Utkirovna, E. S., & Pardayev, A. B. About New Assistants in Uzbek Language. *JournalNX*, 333-336.

15. Utkirovna, E. S. (2023). Badiiy matnni shakllantirishda funksional ko‘makchilarning o‘rni. *Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси* <http://mamun.uz/uz/page/56>, 4, 43-45.
16. Erbo‘tayeva, S. (2022). Some comments on the auxiliary wort. *Международный журнал языка, образования, перевода*, 3(6).
17. Utkirovna, E. S. (2021). O‘zbek tilidagi ko‘makchilashayotgan ayrim so‘zlar xususida. *Fan, ta’lim va amaliyotning integrasiyasi*, 2(4), 1-7.
18. Kamol o‘g‘li, H. H. (2024, October). The Role of Auxiliary Words in the Formation of Phraseological Units. In *International Conference on Adaptive Learning Technologies* (Vol. 10, pp. 55-56).
19. <https://n.ziyouz.com/kutubxona/barcha-kitoblar?start=6>